

TASVIRIY SAN'AT MOHIYATI, TUR VA JANRLARI

B. R. Haqberdiyev

Andijon Pedagogika instituti TSMG dotsenti

Sh. F. Otaxonova

And DU TSMG 3-bosqich talabasi

Annotatsiya

Biz bu maqolada tasviriy san'atning rivojlanish tarixi va ushbu kungacha bo'lgan davir orasidagi o'zgarishlar, yangiliklar, uning asosiy prinsiplari, tur va janrlari, tasviriy san'atda ijod qilib, shu fan rivoji uchun hissa qo'shgan rassomlarimiz haqida so'z olib bordik.

Kalit so'zlar: tasviriy san'at, ibtidoiy davr, go'zallik, taraqqiyot, ijodkor, rangtasvir, haykaltaroshlik, grafika, qalamtasvir, borliq, amaliy san'at, monumental, dekorativ, mo'jaz, animalistik, maishiy, botal, marina, tarixiy, manzara. amaliy grafika, dizayn, muhandislik grafikasi.

THE ESSENCE OF FINE ART, TYPES AND GENRES

B. R. Hakberdiyev

Andijon Pedagogical institute TSMG associate professor

Sh. F. Otakhonova

AndDU is a 3rd year student of TSMG

Annotation:

In this article, we will talk about the history of the development of visual art and the changes, news, its main principles, types and genres between the period until today, and about our artists who contributed to the development of this science by creating in visual art we took.

Keywords: fine art, primitive, beauty, development, creativity, painting, sculpture, graphics, pencil drawing, being, applied art, monumental, decorative, miraculous, animalistic, domestic, botal, marina, historical, practical, design, engineering graphics.

Сущность видов и жанров изобразительного искусства

Б. Р. Хакбердиев

Андижанский Педагогический институт ТСМГ доцент

Ш. Ф. Атаканова

АнДДУ ТСМГ студент 3 ступени

Аннотация:

В этой статье мы поговорим об истории развития изобразительного искусства и изменениях, новостях, его, основных принципах, видах и жарнаъх за период до наших дней, а также о наших художниках, внесших свой вклад в развитие этой науки своими создание в изобразительном искусстве мы взяли.

Ключевые слова: изобразительное искусство, первобытные, красота, развитие, творчество, живопись, скульптура, графика, карандашный рисунок, бытийное, прикладное искусство, монументальное, декоративное, чудотворное, анималистическое, бытовое, ботал, марина, историческая, практическая графика, дизайн, инженерная графика.

Tasviriy san'atning rivojlanish tarixi, ibridoiy davrdan hozirgi kungacha bolgan vaqt davomida, mehnat jarayonlarining taraqqiy etishi natijasida rivojlanib keldi. Mehnat jarayonining rivojlanish davomiyligida inson olamni tafakkur qilishni va undagi tabiiy gozalliklarga bolgan etibori ortdi, voqealikdagi go'zallikning qulaylilik va foydalilik tushunchalari kengaydi. Ibtidoiy davrdan song asta-sekin sinfiy jamiyat vujudga kelishi natijasida taraqqiyotda juda katta o'zgarishlar sodir boldi. Aqliy mehnat jismoniy mehnatdan ajrab chiqqa boshladi. Bu esa fan va san'at rivojida muhim ahamiyat kasb etdi. Shu davrda professional san'at va san'atkorlar paydo boldi. San'at esa o'zining xususiyatlari va sinfiyligini namoyon qilib, hukumron sinfning haqqoniyligini targ'ib etuvchi kuchli g'oyaviy kuchga aylandi. Shunga qaramay, xalq hayotida istedodli, ijodkorlar, mexnatkash xalqning orzu –istiklarini, insonparvarlik, oliyjanoblik, go'zallik, rahim-shavqat kabi tushuncha va tasavvurlarni aniq korsatib beruvchi asarlar yaratdilar. Xalqning doimiy hayoti, hulqi, odat va an'analar, yutuq va mag'lubiyatlari asarlarda o'z ifodasini topdi. Xar bir davrda mavjud bo'lgan ana shunday san'at hayoti go'zalliklarini tasvirlab, insonlarda yetuk hislat va fazilatlarni kamol topdirdi, ularni tenglik, ozodlik, birodarlik aks etgan yorqin kelajakka intilishga da'vat etdi.

Haqiqatdan insoniyat yaratib qoldirgan madaniy qadriyatlar oddiy boyliklar bolibgina qolmay, balki, o'zida inson aql-zakovati, hayoti to'grisidagi fikr va o'ylarini aks ettiruvchi ko'zgu hamdir. Jahon san'ati tarixini o'rganish, uning taraqqiyot qonunlarini tushunish, nodir yodgorliklar bilan tanishish, o'tmish odamlarining xis-tuygu, hayot tajribalarini o'rganish g'oyaviy-estetik qarashlarning shakillanishini bilish demakdir. Bu so'zsiz kishilarda hayotiy tajribaning boyishiga, hayotga yanada keng va atroficha yondashishga yordam beradi.

Tasviriy san'at - rangtasvir, haykaltaroshlik, grafikani birlashtirgan nafis san'at turi. Voqealikni uning osongina ilg'ab oladigan fazoviy shakllarda, ko'rgazmali obrazlarda aks ettiradi. Tasviry san'at turlari o'z xususiyatlariga qarab real borliqni obyektiv mavjud sifatlariga- hajm, rang, fazo, shuningdek, predmetning moddiyshakli va nur, havo muhit, harakat va o'zgarishlari xissini yaratadi, bunda tasvirning hissiy konkretligidan

illyuzionizmga, o'tish mumkin. Tasviriy san'at faqat korish mumkin bolgan narsalarnigina tasvirlab qolmay, balki asarlarda hodisalarning vaqtinchalik rivoji, uning u yoki bu qismi, erkin hikoyanavislik, dinamik harakatlarni ham aks ettirib, dunyoni g'oyaviy o'zlashtirish imkoniyatini kengaytiradi.

Tasviriy san'at turlariga: rangtasvir, aritektura, garfika, haykaltaroshlik, amaliy san'at kiradi. Rangtasvir tasviriy san'atning eng muhim turlaridan bo'lib, mahsus polotnolarga, devorlarga ishlanadi. Tasviriy san'at asarlarida ifodalangan maqsad va mazmunni yoritib berishda ranglar jilosi muhim rol o'ynaydi.

Rangtasvir asarlari xarakteriga ko'ra monumental, dekorativ, mo'jaz, dastgoh turlariga bo'linadi.

Monumental rangtasvir memorchilik bilan bog'liq bo'lib ular uylarning devorlarini, nshiftlarini bezashda qollaniladi. Katta hajmda uzoqdan korishga moljallanganligi uchun bular yaxliylashtirilgan holatda ishlanadi va ranglar ham shartli ravishda olinadi. Mo'jas san'at asarlari turli mamlakatlarda, shu jumladan, O'zbekiston hududida qadimdan taraqqiy etib, qadimiy qo'lyozmalarga ishlangan. Alisher Navoiyning 'Hamsa' asariga ishlangan rasmlar bunga misol bola oladi.

Dasgoh rangtasvir asarlari keng tarqalgan bo'lib maxsus matolar, karton, yog'och, ramkaga tortilgan mato-xolst va shu kabilarga ishlanadi. Dastgohlik rangtasvir suvboyoyq, moybo'yoq, guvash, tempyera bo'yoqlarida maxsus dastgoh (molbyert) larga o'rnatib ishlanadi.

Grafika – lotincha 'grafo' so'zidan olingan bo'lib 'yozaman', 'chizaman' degan ma'noni anglatadi. Tasviriy san'atning bu turiga oddiy va rangli qalamda kumir, pastel, sangina, suvbo'yoq, guvash, tushda ishlangan.

Haykaltaroshlik tasviriy san'at turlaridan biri. U lotincha 'skulpo' so'zidan olingan bo'lib, qattiq materiallarga qirqish, kesish, o'yish orqali ishlov berish manosini anglatadi.

Tasviriy san'at janrlari;

1. Naturmort janri.
2. Portret janri.
3. Manzara janri
4. Tarixiy janri.
5. Maishiy janri.
6. Animalistik janri.
7. Botal janri.
8. Marina janri.

Portret – rangtasvir janrlari ichida eng qadimgilaridan bo'lib, kishilarning tashqi va ichki kechinmalarini tasvir orqali ochib beradi. Portret janirida ishlangan tasviriy san'at asarlari bizga musavvir yashagan davrni, madaniyatini hamda tasvirdagi kishining ruhiyatini asarda talqin etadi.

Avtoportret – portret janirining ko’rinishlaridan biri bo’lib, musavvir o’zining tashqi qiyofasini o’zi tasvirlaydi.

Manzara - janrdagi asarlarda borliq tabiatdagi ko’rinishlar, haqqoniy aks ettiriladi. Manzarada faqatgina narsa va voqealar, balki, musavvirning ichki kechinmali ham ifodalanadi. Bu janrda ijod qiladigon musavvirlardan O. Tansiqboyev, ‘O’zbekistonda mart’, ‘Jonajon o’lkam’, ‘Mening qishlogim’, N. Kashinaning ‘Tog’dan bahor’, I.Inag’omovning ‘Arpa o’rimi’, ‘Choyga’ asarlari mualliflariga shuxrat keltirdi.

Peyzaj – manjara janrida tabiat ko’rinishi o’z aksini topadi. Unda real yoki ko’z oldiga keltrilgan joylar, memorchilik qurilishlari, shahar korinishlari, dengiz ko’rinishlari va h.k. tasvirlanadi.

Naturmort – fransuscha so’z bo’lib ‘jonsiz tabiat’ degan ma’noni anglatadi. Bu janrda musavvir asosan insonni o’rab turgan atrof muhitdagi narsalar, turmushda qo’llaniladigon buyumlar, oziq-ovqat maxsulotlari, meva, gullar va boshqalarni tasvirlaydi. U o’z asarida tevarak-atrofdagi narsalarni tasvirlash orqali, uning harakterli hususiyatlarini, voqeа qaysi davrda ro’y berayotganini ham ko’rsata oladi. Ijodkor musavvirlardan R.Ahmedov. L.Salimjonova, R.Abdurahmonov va boshqalar naturmort janrida barakali ijod qilmoqdalar. Tarihiy janrda ishlangan suratlar orqali biz uzoq o’tmishda bo’lib o’tgan voqeа-hodisalar, tarixiy shaxslar, xalqlarning turmushi va madaniyati, hayot tarzi bilan tanishamiz. Tarixiy janrning ko’rinishlaridan biri bu- jang (botal) manzaralaridir.

Botal janri- ‘botal’ fransuzcha so’z bo’lib ‘jang’, ‘urush’ ma’nosini bildiradi. U jang manzaralarini o’zida aks ettiradi. Bu janrda jang va harbiy yurushlar manzaralari asosiy o’rinni egallaydi. Botalist – rassomlarning asarlarida jangchi obrazi, uning qaxramonligi, martligi, jasorati hamda o’z ona Vataniga bo’lgan cheksiz muhabbatni ifodalanadi. Leonardo da Vinci, M.B.Grekov, G.K.Sovitskiy, A.A.Deyneka, V.V.Volkov va boshqalar ana shunday musavvirlardandir. Taniqli ijodkor M.Nabievning ‘Spitamen qo’zg’oloni’, musavvir R.Rizamuhammedovning ‘Mukanna qo’zg’oloni’, musavvir T.Sodiqovning ‘To’marisning qasosi’ nomli asarlari bunga yorqin misol bo’la oladi.

Animalistik janr o’zgacha tasviriy san’at turidir. U loticha ‘anima’, ‘hayvonot olami’ degan ma’noni bildiradi. Animalistik janrda rassom hayvonot dunyosiga zo’r qiziqish, sevgi va mahorat bilan yondashadi. Xayvonot dunyosi, ibridoiy odamlar hayotida katta ahamiyatga ega bo’lgan. O’sha davrda ular g’orlarning devorlariga kiyik, qutos, mamontlarning rasmlarini chizganlar. Qadimgi Yaponiya va Xitoyda hayvonlarning tasvirlari dekorativ naqishlar holatida hamda monumental kompozitsiyalar yaratishda asosiy hisoblangan XVI asrga kelib hayvonot olami anatomiyasini buyuk musavvirlar Leonardo da Vinci va A.Dyuryerlar ishladilar. Keksa haykaltarosh va grafik musavvir V.A.Vatagin o’zining asarlarida to’rt oyoqli do’stlarini haqqoniy va ishonchli tasvirlaydi.

Maishiy janr- tasviriy sanatda bu janrdagi asarlar kishilarning kundalik hayotini, turli voqealarni o’zida mujassamlashtiradi. Aksariyat rang tasvirda aks etuvchi maishiy janr ilk bor

XVII asrda yashab ijod etgan Golland rassomi – Pityer de Xoh, Sten, Tyerboth Vyermeyer kabilar ijodida namoyon boladi. Reolist rassomlardan P.Fedotov, V.Pyerov, V.Maksimov, Q.Savitskiy, I.Repin kabilar maishiy janrdagi taraqqiyotga katta xissa qo'shdilar. O'zbek rassomlaridan R.Axmedov, M.Saidov, Z.Inog'omov, R.Choriyev, R.Abdurahmonovlar hamda shu janrda barakali ijod qilmoqdalar.

Marinistika – fransuscha ‘marine’, italyancha ‘marina’- ‘suv’ degan manoni bildiradi. Dengiz ko'rinishini aks ettiradigon manzara turi. Mustaqil rangtasvir turi sifatida XVII asr Yevropa san'atidan ajralib turadi. Dengiz, dengiz hayotidagi muhim tarixiy voqealar, harbiy kemalar tafsilotini aynan tasvirlashda dengiz bezak sifatida xizmat qiladi. Golland marinachilari bu janr imkoniyatlarini kengaytirib dengiz tabiatini va u bilan bog'liq baliqchilar hayotini haqqoniy aks ettirdilar. XVIII- XIX asrlarning yirik marinachilari K.Berni, U.Terner, X.Mesdag, I.Ayvazovskiy va boshqalar ijod qildilar. O'zbekistonda marina janriga oid dastlabki asarlar XX asrning 30-yillarida paydo bolgan. Bir qator rassomlarning Orol dengiziga bag'ishlangan asarlari bor.

Bir so'z bilan aytganda tasviriy san'at bugungi kunda ta'lim va iltimoiy hayotning hamma sohalariga jadallik bilan kirib kelmoqda. Ular ma'lumot va axborotlarni yetkazishda kuchli vosita bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun endilikda kasb-hunar va oily ta'lim muassasalarida mutaxassislar tayyorlashda juda ko'p sohalar bevosita tasviriy san'at yoki chizmachilik bilan bog'liq va o'xshash fanlar keng o'rganilmoqda (chizma geometriya, muhandislik grafikasi, kompyuter grafikasi, amaliy grafika, dizayn). Tasviriy san'at insonni komillik sari yetaklaydi, hayotga, atrofdagi narsa va insonlarga bo'lgan e'tiborini oshiradi. Fazoviy tasavvurini shakillantradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zME . birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
2. Abdullayev N.U. 'San'at tarixi' Tema1, Toshkent, O'qituvchi.
3. Abdiyev V.I. 'Qadimgi Sharq tarixi', Toshkent.
4. Pugachenkova G.A. Rempel L.I. 'Istoriya iskusstv O'zbekistana' Toshkent Oripov B. tasviriy san'at o'qitish metodikasi.2006.
5. Ismatov Ulfat Shuhratovich 2020 APPLICATION OF INNOVATION IN EACHING PROCESS European Journal of Research.